

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN YOMON ODATLAR

Aralova Chamanoy Habibullayevna

*Qashqadaryo viloyati, Nishon tuman MMTB ga qarashli
18-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi*

Bolalarda uchraydigan “Yomon odatlar” bola xulq-atvorini buzuvchi qiliqlar, turli xil haddi-harakatlar to‘plami hisoblanadi. Bu odatlar asosan kichik yosh davriga xos bo‘lgan odatlar sanaladi. Bola ota-onasi tomonidan ruhan inkor etilishi, bolaga haddan tashqari talabchanlik qilish, jismoniy jazoni noto‘g‘ri qo‘llash kabi holatlar yomon odatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Eng ko‘p tarqalgan “yomon odatlar” ga tirnoqni tishlash, barmoq so‘rish, burunni kovlash kabi odatlar kiradi. Sochni yulish yoki tortish bosh va badanni tinmay qimirlatishga intilish kabi odatlar esa kamroq uchraydi. Tibbiy adabiyotlarda bolalardagi bunday xulq-atvorning buzilishi patologik odatlar deb ataladi. Ularni yuzaga keltiruvchi asosiy sabablar:

- a) bolalarda ruhiyatga salbiy etadigan kechinmalarning muntazam davom etishi
- b) ota-ona tomonidan ruhan inkor etilish
- v) o‘ta talabchanlik va jismoniy jazo qo‘llash bilan olib boriladigan noto‘g‘ri tarbiya.

Aytib o‘tilgan dalillar bolada hissiy zo‘riqish va doimiy ko‘ngil to‘lmaslik holatini keltirib chiqaradi. Yaqinlariga nisbatan qarama-qarshi tuyg‘ularni his etishga olib keladi. Odat bo‘lib qolgan harakatlar esa organizmning himoya kuchi bo‘lib yomon ruhiy kechinmalarni vaqtinchalik so‘ndirgandek bo‘ladi. Bo‘shashish va qoniqish uyg‘otgani uchun bolaning xulqida yanada mustahkamlanib qoladi.

Barmoqni so‘rish – maktabgacha yoshdagi bolalarga xosdir. Bu holat sun‘iy ovqatlantirilgan bolalarda ko‘p uchraydi, ya‘ni ularda so‘rish instinkti qondirilmaganligi asosiy sabab bo‘lib hisoblanadi.

Aziz ota-onalar farzandingiz bilan ko‘proq muloqot qiling. Balki uning o‘yinchoqlari kamdir, balki tengqurlari bilan muloqoti yo‘qligi uni zeriktirayotgandir. Bu odat uchun boladan jahlingiz chiqmasin, bu holat vaqtinchalik ekanini, uni o‘tib ketishini ba‘zida farzandingizga eslatib turing.

Tirnoqlarni tishlash – ruhiy zo‘riqqan bolalarda ko‘p uchraydi. Bu odat arzimagan narsadan ham tashvishlanadigan bolalarga xosdir. Masalan, bola tanbeh eshitayotganda, hayajonlanayotgan kabi holatlarda tirnog‘ini tishlashi mumkin. Bu odatdan qaytarish uchun bolaga berilgan jazolar vaqtinchalikdir. Chunki bola o‘zi bilmagan holda tirnog‘ini tishlaydi. Jazolar va tanbehtar bola ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bu odatni oldini olish uchun bolani nima bezovta qilayotganini aniqlang. Bu kabi odatlar qoʻrquvdan kelib chiqishi, bolani koʻp narsaga majburlash, uni oʻrab turgan atrof-muhit sabab boʻlishi mumkin. Yomon odatlarni bartaraf etish uchun oilada sogʻlom muhitni yoʻlga qoʻyish, bolaga yumshoq muomalada boʻlish, har bir ishi uchun uni ragʻbatlantirish, tengqurlari bilan koʻproq muloqotda boʻlishini taʼminlash, bola yomon odatdan chalgʻitish uchun uni boshqa bir ishga fikrini burish, jismoniy mehnat bilan shugʻullanishga qiziqtirish muhim sanaladi. Zero, oʻsib kelayotgan yosh avlodni biz ota-onalarning, tarbiyachi ustozlarning oʻrni beqiyosdir.